

ONA TILI DARSLARIDA TINISH BELGILARINI O'RGATISH BO'YICHA USLUBIY TAVSIYALAR

Ubaydullayeva Sayram

*Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumani 73-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili darslarida tilshunoslikning punktuatsiya bo'limi va uni o'rganish metodikasi bo'yicha uslubiy tavsiyalar haqida to'xtalib o'tilgan hamda unda muhim ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: punktuatsiya, nuqta, vergul, qo'shtirnoq, nuqtali vergul, qavs, so'roq, undov, ko'p nuqta, tire....

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishishdan iborat. Bunda biz o'qituvchilarga dars jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash yaxshi samara beradi, albatta. Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiysi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga bog'liq. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, o'quvchilarning asosiy vaqtি maktablarda ta'lim-tarbiya olish bilan o'tadi. Kelajakka qadam ham aynan maktab davridan boshlanadi. O'quvchilarni savodxon etib tarbiyalash, ularning yozma savodxonligini oshirishga e'tibor ham maktabdan shakllantiriladi. Bunda ona tili darslarining o'rni va roli muhim.

Barchamizga ma'lumki, o'zbek tilshunosligida bir qancha bo'limlar bo'lib, ularning har birining o'z vazifasi mavjud. O'zbek tilida tinish belgilari punktuatsiya bo'limida o'rganiladi. Punktuatsiya - lotincha "punktum" so'zidan

olingo bo‘lib, “nuqta, to‘xtash joyi” degan ma’nolarni bildiradi. Bu bo‘limda tinish belgilari va ularning qo‘llanilish qoidalari o‘rganililadi.

Punktuatsiya – yozuv oynasi. Yozuv orqali ifodalangan har bir gapning mazmuni, ma’nosni va sintaktik qismlari orasidagi turli munosabatlarni aniqlashda punktuatsianing o‘rni muhim. U yozma matnning tushunilishini osonlashtiradi, mazmunini oydinlashtiradi, unga aniqlik kiritadi.



Hozir o‘zbek yozuvida 10 xil tinish belgisidan foydalaniladi:

Tinish belgilaringning qo‘llanilishi gapning mazmuni, grammatik qurilishi va ohangiga ko‘ra bo‘ladi. Gapda tinish belgilarning o‘rni o‘zgarsa, gapning mazmuni va sintaktik tuzilishi ham o‘zgaradi. Tinish belgilar odatda qo‘saloq tarzda ham ishlatiladi. Buni quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin.

Tinish belgilarining qo'shaloq holda ishlatalishi**01****His – hayajon bilan aytilgan so'roq
gaplar oxirida ?!****02****Undov gaplar kuchli his-hayajon
bilan aytilsa !!!****03****Muallif gapi va ko'chirma gap orasida
ketma-ket tinish belgisi ishlataladi****Nuqta o'zbek tilida, odatda, quyidagi o'rnlarda ishlataladi:**

- 1.His – hayajonsiz aytilgan darak, buyruq gaplardan so'ng;
- 2.Atov gaplardan keyin;
- 3.Ismi, otasining ismi (ba'zan familiya ham) qisqartirilganda, ularning birinchi harfidan so'ng;
- 4.Nashriyot ishlarida, lug'at va ma'lumotnomalarda shartli ravishda qisqartirilgan ayrim so'zlarning birinchi harfi yoki bo'g'inidan so'ng;
- 5.Qo'shma gapning birinchi qismidan so'ng kuchli to'xtam bo'lsa, mantiqan biri ikkinchisiga bog'lanmagan qo'shma gaplar orasida ham nuqta ishlataladi. Bunday hollarda ikkinchi gap ammo, lekin, biroq, chunki, shuning uchun bog'lovchilari bilan boshlanishi mumkin.
- 6.Ba'zi bir hollarda yil, oy, kunni ifodalovchi raqamlardan so'ng, ham nuqta qo'yilishi kuzatiladi.
- 7.Butunning qismlarini sanash uchun qo'llanilgan arab raqamlaridan so'ng ham nuqta ishlatalishi mumkin.
- 8.Hisob – kitob ishlarida nuqta belgisidan ko'paytiruv alomati sifatida ham foydalilanildi.

9.Birinchi qismida (uzilib qolgan qismida) nuqta, ko‘p nuqta undov yoki so‘roq belgisi bo‘lgan ko‘chirma gap o‘rtasida kelgan muallif gapidang so‘ng nuqta qo‘yiladi.

**TIRE rus yozuvchisi Karamzin tomonidan kiritilgan.
O‘zbekcha matnlarda XIX asrning 70-yillaridan uchraydi**



Ko‘pchilik hollarda o‘quvchilarda tire(–) va chiziqcha(-)ni almashtirish hollari kuzatiladi. Chiziqcha tinish belgilar qatoriga kirmasligini va uning asosiy vazifani tushuntirish o‘qituvchidan pedagogik mahoratni, zamonaviy texnologiyalarga yondashishni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, punktuatsiya bo‘limini musiqa asarlari notasiga o‘xshatish mumkin. Nota musiqa asarini anglash uchun qulaylik tug‘dirsa, tinish belgilari yozma nutq mohiyatini yaxshi tushunishni ta’minlaydi. Og‘zaki va yozma nutqni shakllantirishdek murakkab vazifa biz ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari zimmasiga yuklatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Safarova G‘. Pedagogika ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2015-yil.
2. Asadov Y. Yangi pedagogik texnologiyaning tarkibiy mohiyati haqida. "Til va adabiyot ta’limi" 1998-y., 4-son.